

Utayev G'ayrat G'aybullayevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

MAMLAKATIMIZ TA'LIM KLASTERINING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda ta'lismiziga klasterli yondashuvni tadbiq etishning falsafiy masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lismi klasteri, innovatsion klaster, tizim, o'zgarish, yangilanayotgan jarayon.

KIRISH

Bugungi murakkab, nochiziqli olamda ta'lismi tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, ta'lismi tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, unda maktabgacha, umumiyo o'rta va oliy ta'lismi tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lismi jarayonining barcha sub'ektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta'limga to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

Shu sababli ham Yangilanayotgan O'zbekistonda mintaqaviy oliy ta'lismi muassasalarining raqobatbardoshligini rivojlantirish yo'nalishlaridan biri bu ta'lismi klasterini tashkil etishdir. Albatta bunda biz avvalo "ta'limga barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik" [1, 10]. Darhaqiqat, respublikamizda ilm-fan va ta'lismi, ta'lismi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlari alohida e'tibor berilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xo'sh klaster nima? Ta'lismi klasterining falsafiy mohiyati qanday?

Klaster (inglizcha – to'plash, konsentratsiya) turli xil narsalar yoki odamlarning guruhi, birlashmasidir [2, 31]. Demak, klaster bu korxonalar birlashmasi, uskunalar, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilar, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xizmatlari, tadqiqot va ta'lismi tashkilotlari hududiy yaqinlik va tovarlarni ishlab chiqarish va sotishda funksional bog'liqlik munosabatlari bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Iqtisodda klaster hududiy jihatdan yaqin hamda funksional jihatdan bir biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil sub'ektlar, ya'ni tashkilotlar, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lismi maskanlarining birlashmasidir. Shu sababli ham iqtisodda klasterlar tuzilishiga ko'ra geografik, sohaviy, gorizontal va vertikal turlarga bo'linadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, klaster tushunchasini tahlil va amaliy faoliyatda ham foydalanish mumkin. Birinchi holda klaster o'zida alohida tashkilot yoki ob'ekt sohasini o'rganish, qisman bashorat etishda ko'rinishdi. Ikkinci holda klaster regional rivojlanish strategiyasi doirasida ob'ektni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar firma regionida joylashgan

bandlik va foyda kelishi, konkurentlik imkoniyati, innovatsion, ishlab chiqarishni o'sishini klasterlar bilan qurib chiqishadi.

Albatta, klaster tushunchasi o'zida murakkab tizimni ifoda etadi. Klaster ko'p sonli elementlardan iborat, elementlar orasidagi o'zaro aloqalar kuchli bo'lgan murakkab tizimdir. Klaster turli sohalarda tashkil etilishi mumkin. Masalan, bir birining raqobatbardoshligini o'sishiga yordam beradigan va sohasi bilan yaqin bog'langan firma jamoalari. Har bir davlat iqtisodiyoti uchun klasterlar ichki bozorni o'sish nuqtasida muhim rolni o'ynaydi.

Klasterning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda maqsadli tadbirkorlik faoliyati shakllanadi hamda unga kiruvchi har bir element yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etadi. Shuningdek, ishlab chiqarish, innovatsion, turistik, infrastrukturadagi va ta'lif klasterlari ham mavjud.

Innovatsion klaster innovatsiyalar, texnologiyalar sohasida faoliyat olib boruvchi, geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'zaro bog'liq kompaniyalar, tashkilotlarning guruhi bo'lib, innovatsion soha klasterlarida yangi tovar yoki xizmat bir nechta firma yoki tadqiqot institutlarining sa'y harakati natijasida yaratiladi. Shuningdek, bilim va fan bilan bog'liqligiga ko'ra – yuqori texnologik, tarixan nou-xauga asoslangan klaster, omil asosidagi klaster, ishlab chiqarish harajatlari past bo'lgan klaster, bilim xizmatlarini ko'rsatuvchi klasterlar (dasturlash, injiniring, analitik tahlil xizmatlari) ham mavjud.

Demak, klaster bir necha mustaqil kompaniya mahsulot ishlab chiqarish uchun ixtiyoriy ravishda birlashadi. Klasterlar kontekstga qarab, turli xil tuzilmalarni anglatadi va klasterlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlashning taklif etilayotgan mexanizmlari nihoyatda umumiy xarakterga ega va an'anaviy rivojlanishining keng ko'lamdagи tadbirlarini birlashtiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, klasterlarni yaratish ham klasterning ichki tuzilmalari (kirib kelayotgan korxona va tashkilotlar), ham mintqa iqtisodiyoti va ular joylashgan sanoatning barqarorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lif klasteri tarmoq korxonalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan kasb-hunar ta'lifi muassasalarining sa'y-harakatlarini yagona makonga birlashtirishga mo'ljallangan. Ta'lif klasteri g'oyasi davlat tomonidan ta'lif va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlarga aralashishi tufayli amalga oshiriladi. Chunki ta'lif muassasalarini moliyalashtirish muammolarini hal qilish uchun kasb-hunar ta'lifi amaliyotga yo'naltirilganligini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish orqali mamlakatning mehnat resurslari defitsitini to'ldiradi.

Shu bilan birga, kelajakdagi huquqshunoslar, psixologlar, sotsiologlar va boshqa gumanitarlarning kasbiy tayyorgarligini birlashtirish imkoniyatlarini baholash, ularni bugun tayyorlayotgan o'quv muassasalari o'zlarining klasterlarini yaratishga kirishmoqdalar. Bunday klasterlar uchun muhim yo'nalish insonning boshqa shaxs faoliyatining ob'ekti bo'lgan jamiyatning ijtimoiy sohasi bo'lishi mumkin.

Ta'lif klasteri - asosan zanjir ichidagi gorizontal bog'lanishlarga asoslangan fan-texnologiya-biznes innovatsion zanjirida o'qitish, o'zaro o'rganish va o'z-o'zini o'rganish vositalari tizimdir.

Ta'lif klasterlarini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, klasterlar ta'lifi yanada rag'batlantirish va sifatini sezilarli darajada oshirish va o'quv jarayoniga yangiliklarni kiritish qobiliyatiga ega [3].

Xulosa qilib aytganda, yangilanishlar “inson kapitali”, ya’ni soha va sohalararo faoliyatni o‘zida mujassamlashtirgan klasterlardagi tashabbuskor mutaxassislarining tafakkuri bilan bog‘liq. Mazkur klasterlarda sohalarning ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha kichik korxonalarining manfaatli kooperatsiyasi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi. Shu bilan bilan birga, ta’lim klasteri o‘quvchi-yoshlarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga; o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy, fuqaroviylar, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. -B.10.
2. Zamonaviy falsafiy atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: «Universitet», 2018. –B.31.
3. Kurnosova E.A. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash: innovatsion xulq-atvorni shakllantirish // Rossiya iqtisodiy Internet jurnali. 2019. No 1, -P.598–607
4. Podbornova E.S., Tyukavkin N.M. Raqobatbardoshlikni baholashning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish // Ijtimoiy fanlar. 2011. No 6, -P.386–393.
5. Montlevich V.M., Saraev L.A. Diskret optimallashtirish: Darslik. - Samara, 2019 yil.